



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

## **THE EFFECTIVENESS OF USING INNOVATIVE METHODS IN SPEECH THERAPY SESSIONS**

**Author: G’ulomova Muxlisa**

**Temirbekova Maftuna**

1st-year student at the Faculty of Pedagogy

Chirchik State Pedagogical University

**Scientific Advisor: Maxkamov Doston,**

Teacher at Chirchik State Pedagogical University.

**Abstract:** This thesis analyzes the role and significance of modern innovative technologies in improving the quality of speech therapy sessions conducted with children with various speech defects. During the research, the impact of using ICT (Information and Communication Technologies), game-based technologies, and specialized computer programs on the correctional process was comparatively studied alongside traditional methods. Based on the results obtained, conclusions were drawn regarding the advantages of an innovative approach.

**Keywords:** speech therapy (logopedics), innovative methods, ICT, “Logomer”, “Delfin”, su-jok therapy, speech defects, correctional pedagogy, stuttering, dyslalia.

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdan nutqida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlarning sifatini oshirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an’anaviy metodlar bilan birga AKT, o‘yinli texnologiyalar va maxsus kompyuter dasturlarini qo‘llashning korreksion jarayonga ta’siri qiyosiy o‘rganilgan. Olingan natijalar asosida innovatsion yondashuvning afzalliklari bo‘yicha xulosalar berilgan.

### **Kirish**



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Zamonaviy ta’lim tizimida nutq rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash va samarali bartaraf etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Nutq — bu nafaqat muloqot vositasi, balki bolaning tafakkuri, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishining muhim omilidir. Shu sababli logopedik yordamni takomillashtirish, ayniqsa innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda an’anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish nutq rivojlanishida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

**Tadqiqotning nazariy asoslari va metodlari**

Mazkur tadqiqot nutq rivojlanishining psixologik va pedagogik qonuniyatlariga asoslanadi. Nutq faoliyatining shakllanishi bola psixikasining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur) muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotda kompleks yondashuv qo‘llanilib, quyidagi metodlardan foydalanildi: kuzatish, diagnostik suhbat, eksperimental topshiriqlar hamda natijalarni qiyosiy tahlil qilish. Shuningdek, individual va differensial yondashuv tamoyillariga amal qilinib, har bir bolaning rivojlanish darajasi hisobga olindi.

**Asosiy qism va natijalar**

Logopedik mashg‘ulotlar tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Mashg‘ulotlarda artikulyatsion mashqlar, fonematik eshitishni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar hamda bog‘langan nutqni shakllantiruvchi mashqlar kompleks tarzda qo‘llanildi.

Logopedik mashg‘ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ikki yo‘nalishda amalga oshirildi:



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Dasturiy ta'minot: "Logomer" va "Delfin" kabi maxsus kompyuter dasturlari orqali bolalarning fonematik eshitish qobiliyati va talaffuzi rivojlantirildi.

Pedagogik texnologiyalar: Barmoq motorikasini rivojlantirish uchun su-jok terapiyasi (barmoq mashqlari) keng qo'llanildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, muntazam va maqsadli olib borilgan ishlar bolalarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z boyligini oshirish va gap tuzish ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, bolalarning nutqiy faolligi ortib, ular muloqot jarayonida faolroq ishtirok eta boshlaydi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasiga ko'ra, innovatsion metodlar qo'llanilgan guruhda bolalarning nutqiy faolligi an'anaviy guruhga nisbatan 25% ga yuqori ekanligi aniqlandi. Vizual va audio stimullar nutq apparati a'zolarining harakatini yaxshiroq koordinatsiya qilishga yordam berdi.

<b>Metod nomi</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Qo'llash jarayoni</b>	<b>Kutilgqn natija</b>
Arikulyatsion mashqlar	Nutq apparati organlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar	Lab, til, jag' harakatlarini mashq qildirish orqali amalga oshiriladi	Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish yaxshilanadi
Fonematik eshitishni rivotlantirish	Tovushlarni farqlash va eshitish qobilyatini oshirish	Maxsus audio mashqlar, tovushlarni ajratish o'yinlari	Bola tovushlarni aniq ajrata oladi
Didaktik o'yinlar	O'yin orqali nutqni rivojlantirish	So'z boyligini oshiruvchi va gap	Nutqiy faollik va qiziqish ortadi



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

		tuzishga yordam beruvchi o'yinlar	
Suhbat metodi	Muloqot orqali nutqni rivojlantirish	Savol-javob, erkin suhbat tashkil etish	Bog'langan nutq rivojlanadi
Ko'rgazmali metodlar	Vizual vositalar orqali o'rgatish	Rasmlar, kartochkalar, videolar orqali ishlash	Tushunish va eslab qolish kuchayadi

### **Tahlil va muhokama**

Innovatsion metodlar duduqlanish, dislaliya va nutq umumiy rivojlanmaganligi (NUR) kabi murakkab holatlarda korreksiya vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Bu usullar bolalarda nafaqat nutqni, balki diqqat, xotira va mantiqiy fikrlashni ham barqarorlashtiradi. Eng muhimi, bolalarda mashg'ulotga nisbatan kuchli motivatsiya va qiziqish shakllanadi.

Shuningdek, nutqni rivojlantirish jarayonida faqat artikulyatsiya emas, balki psixologik omillarni ham hisobga olish zarurligi aniqlandi. Ijobiy emotsional muhit, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash bolalarning muvaffaqiyatga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, logopedik mashg'ulotlarda kreativ va innovatsion yondashuv korreksion jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir. AKT va o'yinli texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlaydi.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash faqat maxsus mashqlar bilan cheklanmay, balki bolaning umumiy psixik rivojlanishini ham qamrab olishi lozim.

Kelgusida logopedik amaliyotda zamonaviy texnologiyalarni yanada keng joriy etish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

Jalolov, S. (2021). Psixologiya asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.

Ayupova, M. Y. (2019). Logopediya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

Sattorov, B. (2023). Talabalarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish yo'llari. Chirchiq davlat pedagogika universiteti jurnali.